
HOKIM SANOAT KORXONALARIDA

Qo'shtepa tumani hokimi I. Novikov va tuman prokurori M. Shomurodovlar tumandagi sanoat korxonalarida bo'ldi. Xususan, Sarmozor mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi "Sardor RRS", "Sarmozor mebel ta'mir", "Marg'ilon poyafzal", "Sharq ravon" mas'uliyati cheklangan jamiyatlari va "Fayzli Robiyaxon jilosi" hamda Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi "Sardoba ko'za plast" xususiy korxonalarida bo'lib, "Koronavirus" pandemiyasi davrida joriy etilgan karantin qoidalariga qati'y amal qilgan holda korxona faoliyatini tizimli tashkil etish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borishdi.







Tuman hokimi sinovli kunlarda mavjud imtiyoz va imkoniyatlardan foydalangan holda hamjihat bo'lib ish olib borayotgan ishchilar bilan hamsuhbat bo'ldi hamda ularga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

I. Novikov koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha berilgan imtiyoz va imkoniyatlarga atroflicha to'xtalib, bu borada hamjihatlikda ish olib borish bugungi kunning muhim vazifalaridan ekanligini ta'kidlab o'tdi.





Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-04-21 18:13:11